

Qiziriq tumani “Istiqlol” oilaviy shifokorlik punktining yangilangan binosi foydalanishga topshirildi



Qiziriq tumani “Istara” mahallasida joylashgan tibbiyot muassasasi binosi 1,1 mlrd so‘m mablag‘ evaziga rekonstruktsiya qilinib, zamonaviy sharoitlar bilan ta‘minlandi hamda muassasa oilaviy shifokorlik punktiga aylantirildi. Bugun mazkur tibbiyot maskanining yangilangan binosi foydalanishga topshirildi.

Tadbirda viloyat hokimi Ulug‘bek Qosimov ishtirok etib, muassasada yaratilgan sharoitlar, “Elektron poliklinika” tizimini joriy etish ishlari, aholi tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonlari bilan tanishdi. Mas‘ullar tomonidan tibbiy xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, kelib tushgan murojaatlarga asosan kasalliklar dinamikasi to‘g‘risida axborot berildi.

Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida “Istiqlol” oilaviy shifokorlik punktiga kompyuter jamlanmalari, UZI va EKG apparatlari, tibbiy jihozlar hamda patronaj hamshiralarga planshetlar topshirildi.

Viloyat rahbari shu yerning o‘zida mahalla nuroniylari va faollari bilan ham suhbatlashdi. “Istara” mahallasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlaridan mamnun bo‘lgan nuroniylar davlatimizdan minnatdor ekanliklarini bildirishib, duoga qo‘l ochishdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)